



TALABALARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O'RGATISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOG MAHORATI

Komilov Nozimjon Abduraximovich

Guliston davlat universiteti "Tabiiy fanlar" fakulteti

o'qituvchisi, nozim_komilov@mail.ru, 6341963@gmail.com

Kudratov Xoyitjan Ast o'g'li

Guliston davlat universiteti "Tabiiy fanlar" fakulteti

o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10814285>

ARTICLE INFO

Received: 10th March 2024

Accepted: 11th March 2024

Published: 13th March 2024

KEYWORDS

strategik fikr, pedagogik
tafakkur, o'qituvchi, pedagogik
tafakkur rivojlantirish,
pedagogik texnologiya,
munozarali guruh

ABSTRACT

Ushbu maqolada Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan bo'lib an'anaviy va noan'anaviy o'qitish usullari haqida fikrlar bayon qilingan. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash, munozarali guruhlar, juftliklar, turlicha mashqlar, tarqatma materiallar, shakl va ranglar, raqamlar, ijodiy qarashlar, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, turli yozishmalar, uslublar, rasmlar, chegaralangan daqiqalar, aralash vaziyatlardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Ta'limdagi o'zgarishlar bugungi davrda yurtimiz kelajagining mustahkam poydevori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 va "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ - 4884-sonli buyrug'i ta'minlash maqsadida zamonaviy talablar asosida pedagog kadrlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning maqsadi - ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini tahminlash va tinglovchilar tomonidan o'qitishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi - ommaviy ta'lim sharoitida istalgan pedagogga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni tahminlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning predmeti - o'quv jarayonining o'zi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning obhakti-bu o'quv mashg'ulotlaridir. Bilimga asoslangan jamiyat malakali kadrlarga extiyoj: Demak, pedagog quyidagi salohiyatga ega bo'lishi talab etiladi, yahni pedagog axborot savodxon, Media savodxonligiga ega bo'lishi, tadqiqotchilik va analitik fikrlashi, axborotlarni tezkor topishi va qayta ishlashi, o'z ishiga ijodiy yondashishi talab qilinadi. Bundan tashqari pedagog loyixalarda ishlay olish, muammolarni hal qila olish, jamoada hamkorlik, taqdimot qilish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi kerak. Hozirgi kunda ta'limning yangi maqsadlari shakllangan bo'lib, bu insonning subekt sifatida uzluksiz rivojlanish g'oyalari, butun hayoti davomida ta'lim olishi zarurligi tahkidlanadi. Ta'lim

oluvchilar ta'lim faoliyatini nafaqat olamni anglash, inson qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, balki olamni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun olib borishlari kerak. Ta'lim yondashuvlariga an'anaviy etish, tushuntirish, namoyish qilish misol bo'la oladi. Ta'lim texnologiyalaridan asosiysi bu an'anaviy texnologiyadir. Bu muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalanib ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir. Noan'anaviy o'qitishning qiyosiy tahliliga kelsak, bu bilim berish, ko'nikma shakllantirish, hamkorlikdagi faoliyat orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'rganuvchi ko'rsatmalarga bo'ysunadi, axborotni passiv qabul qiladi; axborotni o'zlashtiradi; o'z g'oyalarini taklif qiladi; faol ishtirok etadi; ta'lim jarayoniga to'liq mashul bo'ladi. Pedagog talabaga motivatsiya beradi, qiziqtiradi, nazorat qiladi. O'qituvchi usullar (metodlar) bilan dars tashkillashtiradi, talaba dalillar asosida bilim oladi, axborot oladi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yangilanayotgan barcha sohalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liqligi, oxirgi to'rt yilda ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilarda strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari, o'qituvchilarga metodik yordam berish uchun texnologiyalashtirilgan dars ishlanmasi, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ilmiy bilimlarni, amaliy faoliyatlarni tashkil etish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bugungi kunda dolzarb axamiyatga ega. Pedagogik texnologiya jumlasida o'qituvchi uchun yangilik emas, lekin pedagogik texnologiya o'qituvchining ta'lim berish jarayonida erkin faoliyatni namoyon qilish, yuritilgan fikrlarni ishonish-ishontirish asosiga qurish, ishlatish va ulardan foydalanish yo'llarini anglashdan iborat. O'qituvchi-trener-fasilitator terminlari bolalarni to'g'ri yo'lga yo'naltirishdagi registrlardir. Ular muzyoralar, munozarali guruxlar, juftliklar, turlicha mashqlar, tarqatma materiallar, shakl va ranglar, raqamlar, ijodiy qarashlar, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, geometrik figuralar, turli yozishmalar, uslublar, rasmlar, chegaralangan daqiqalar, aralash vaziyatlar kabilardan foydalanib, pedagogik jarayonni zeriktirmay hamda zo'riqtirmay o'tkazish tarafdorlaridir. Talabalarning barchasini faollashtirish uchun asosiy fikr yoki guruh tomonidan kelishilgan javoblarni yozib olish uchun-yozib oluvchi, boshqa guruhlarga hisobot berish uchun-sharxlovchi, hammaning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi-ruhlantiruvchi, berilgan vaqtni doimo eslatib turuvchi-vaqt belgilovchi yoki nazorat qiluvchi, ovoz chiqarib o'qish uchun-talaba, har bir ishtirokchi navbatini, galma-galdan ta'kidlab turuvchi navbat nazoratchisini, guruhdagi har bir ishtirokchini tushunish va fikrlarga qo'shilishini qo'llab, ta'minlab boruvchi- tekshiruvchini saylab oladilar. Bu bilan har tomonlama erkinligini tarkib toptirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bu o'qituvchilarning strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Muammoli ta'lim texnologiyalari ya'ni Case study talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi - insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni

aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim talabalarining ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Keys stadining bosh maqsadi – talabalarining o'rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o'quv fanlari boyicha o'qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o'qituvchi talabalarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;

- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

- hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qoyilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar. Muammoli vaziyatni hal etish darajalari: -o'qituvchi muammoni qoyadi va o'zi yechadi;

-o'qituvchi muammoni qoyadi va uning yechimini talabalar bilan birgalikda topadi;

-talabalarining o'zlari muammoni qoyadilar va uning yechimini topadilar. Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish; - solishtirish, umumlashtirish;

- faktlarni aniqlash va qiyoslash;

- vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;

- talabalarining o'zlari aniq savollar qoyishi va boshqalar.

Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi bilimlarni talabalarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar boyicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda talabalarga hal etish taklif etiladigan muammoga qoyiladigan eng asosiy talab – talabalarining qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, talabalarda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo'lmaydi.

Muammo talabalarining bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi shart.

Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Talabalarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa talabalarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda talaba o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi.

Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyliqi, mustaqilligi, ijodiyliqi, ilmiyligi, asosiligi, uzviyligi, tejamliqi, maqsadliliqi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyliqi, umumlashtirilganligi, xususiylashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyliqi darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra talabalarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxmini to'g'ri belgilash va yechimning to'g'riligini tekshirish qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

- 1. Isbotlash** – bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi.
- 2. Tekshirish** – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.
- 3. Tushuntirish** – bu muammoning yechimi nima uchun to'g'riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, darslarda talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularda aql sifatlarini, umumiy aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. N. S. Leytesning ko'rsatishicha, oliy nerv faoliyati xususiyatlarida aktivlik va o'z-o'zini tartibga solishning ayrim shart-sharoitlari yashiringan bo'lib, bular umumiy aqliy qobiliyatlarni tarkib toptirishning muhim ichki shartlaridan biridir. O'qituvchilarda strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirish pedagogik texnologiyalarni qo'llash va texnologiyalashtirilgan darslarni olib borish pedagogik mahoratni talab qiladi. Yuqoridagi dars andozasini har bir fan o'qituvchisi amaliyotga joriy qilsagina mashg'ulot mazmuni serqirra, talabalardagi zerikish va zo'riqishlar chekinadi. Bu bilan o'ziga, maktabiga, hayotiga, kelajagiga bo'lgan ishonch ortib boradi. O'z o'rnini mustaqil topadigan, kasbini sevadigan, kunikma va malakalarini orttirib boradigan kadrlarning milliy tizimi yaratiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рахматов, Ф. О., & Рахматов, О. (2023). МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЕПЛОВОГО БАЛАНСА И АЭРОДИНАМИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ СУШИЛЬНОЙ УСТАНОВКИ. *Journal of Agriculture & Horticulture*, 3(6), 90-94.
2. Артиков, А., Машарипова, З. А., & Рахматов, Ф. О. У. (2020). АВТОМАТИЗИРОВАННЫЕ РАСЧЕТЫ РАВНОВЕСИЯ ТРЕХФАЗНОЙ СИСТЕМЫ В ПРОЦЕССЕ ОБЕЗВОЖИВАНИЕ ЖИДКОГО МАТЕРИАЛА. *Universum: технические науки*, (12-3 (81)), 24-30.

3. Rakhmatov, O., & Rakhmatov, F. (2023). Experimental study of the process of drying melon slices in a chamber-convection dryer. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 443, p. 02004). EDP Sciences.
4. Рахматов, О. О., Рахматов, Ф. О., & Тухтамишев, С. (2017). ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛИНИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ВЯЛЕННОЙ ДЫНИ. In *Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства* (pp. 1317-1320).
5. Рахматов, О., Рахматов, О. О., & Рахматов, Ф. О. (2018). Совершенствование технологии переработки дынь в условиях республики Узбекистан. *Ташкент: «Фан»*.
6. Rakhmatov, O., Tukhtamishev, S. S., Khudoiberdiev, R. K., Adilov, A. A., & Rahmatov, F. O. (2023, April). Experimental and theoretical studies of the modulus of elasticity and Poisson's ratio for vegetable and melon crops. In *International Conference on Digital Transformation: Informatics, Economics, and Education (DTIEE2023)* (Vol. 12637, pp. 291-297). SPIE.
7. Nuriev, K. K., Nuriev, M. K., Rakhmatov, O., & Rakhmatov, F. O. (2022, August). Comprehensive assessment of the degree of flooding of soil-cutting working bodies (on the example of plow shares). In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1076, No. 1, p. 012069). IOP Publishing.
8. Saidov, J., Nazarqulov, A., & Danaboyev, N. Z. (2024). ELEKTRON DIDAKTIK VOSITALAR YORDAMIDA BILIMLARNI SINASH MUAMMOLARI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 143-147.
9. Saidov, J., Irsaliyev, F., Elmurodova, G., & Rustamova, M. (2024). TALABALARNING MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH BO 'YICHA BILIMLARINI BAHOLASH MEZONLARI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 131-134.
10. Saidov, J., Irsaliyev, F., Temirxolova, B., & Ismoilova, C. (2024). TALABALARNING BILIM OLISHGA BO 'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH MUAMMOLARI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 134-137.
11. Anarbaev, A., Tursunov, O., Kodirov, D., Khudaev, I., Isakhodjayev, K., & Islikov, S. (2021). Pre-sowing activation of seeds by ultraviolet (UV) radiation. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 304, p. 03040). EDP Sciences.
12. Islikov, S., Normurotov, J., Normuminov, B., & Yunusov, A. (2024). METHODOLOGY OF USING PROJECT-ORIENTED LEARNING AND MIXED TASKS IN EDUCATION. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 138-142.
13. Khalilova, L., Allayarov, A., Ravshanov, H., Karimova, Z., & Yusupov, A. (2024). LANGUAGE AND SOCIAL CONSTRUCTS IN GENDER-RELATED LEXICAL UNITS. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 164-169.
14. Khalilova, L., Ravshanov, H., Xudayberdiyev, R., & To'rakulova, G. (2024). DIGITAL TECHNOLOGY INTEGRATION FOR IMPROVING FOREIGN LANGUAGE LEARNING. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 188-191.

15. Khalilova, L., Allayarov, A., & Kysilkova, E. (2023). UNRAVELING THE TAPESTRY OF GENDER: EXPLORING GENDER-RELATED LEXICAL UNITS. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 2(5), 112-114.
16. Ravshanovna, K. L., & Kysilkova, E. (2023). A SYNCHRONIC AND DIACHRONIC STUDY OF GENDER-RELATED LEXICAL UNITS. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 16, 171-174.
17. Углы, Ф. О., Каримкулов, А. Т., & Базарова, Р. Ш. (2014). Инновационный подход к развитию тутового шелкопряда в червководне замкнутого типа. *Вестник Алтайского государственного аграрного университета*, (9 (119)), 122-125.

